



**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI**

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UDK: 617.7-036.2:616.36.7856

**JANUBIY OROL BO'YI MINTQASIDA KO'Z KASALLIKLARINING TURLI
YOSHDAGILAR ORASIDA TARQALGANLIGINING XUSUSIYATLARINI O'RGANISH.**

**Niyazmetov Baxtiyer Qadamovich., Avezov Muhiddin Ikromovich-Urganch Davlat tibbiyot
instituti "Otorinolaringologiya va oftakmologiya" kafedrası dotsentlari**



Orcid raqami: 0009-0000-6311-0770

Niyazmetov2212@gmail.com

UDK: 617.7-036.2:616.36.7856



Orcid raqami: 0009-0006-7430-3671

avezov_m@mail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada birinchi marta ekologik noqulay sharoitida yashovchi bolalar, o'smirlar va katta yoshdagilar orasida turli ko'z kasalliklarining tarqalganligi, tarkibi va darajasi o'rganildi hamda taxlil qilindi. Xorazm viloyatida ko'z kasalliklari bilan xastalanish o'sish tendentsiyaga ega, usbu xolat asosan o'smirlar va kattalar o'rtasida qayd etilmoqda. Ko'z kasalliklarining tarqalishida noxush ekologik muhit yetakchi o'rnini egallaydi. Mazkur maqolaning maqsadi sifatida aholi orasida ko'z kasalliklari bilan kasallanish tarkibi, darajasini, shuningdek, ulardan nogironlikka chiqishni o'rganish va shu asosda ko'z kasalliklari profilaktikasini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni taklif etishni bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik noqulay sharoit, ko'z kasalliklari, nogironlik, ko'rish o'tkirligi, kasallanish, profilaktika.

Аннотация. Данная статья является первой, в которой изучается и анализируется распространенность, состав и уровень различных заболеваний глаз среди детей, подростков и взрослых, проживающих в неблагоприятных экологических условиях. В Хорезмской области наблюдается тенденция к росту заболеваемости глазными болезнями, и эта ситуация в основном отмечается среди подростков и взрослых. Неблагоприятные условия окружающей среды играют ведущую роль в распространении глазных заболеваний. Цель данной статьи – изучить состав и уровень заболеваемости глазными болезнями среди



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

населения, а также уровень инвалидизации от них, и на этой основе предложить меры по улучшению профилактики глазных заболеваний.

Ключевые слова: неблагоприятные экологические условия, заболевания глаз, слепота, острота зрения, заболеваемость, профилактика.

Abstract. This article is the first to study and analyze the prevalence, composition and level of various eye diseases among children, adolescents and adults living in environmentally unfavorable conditions. In the Khorezm region, the incidence of eye diseases has a growing trend, and this situation is mainly noted among adolescents and adults. An unfavorable environmental environment plays a leading role in the spread of eye diseases. The purpose of this article is to study the composition and level of incidence of eye diseases among the population, as well as the incidence of disability from them, and on this basis to propose measures to improve the prevention of eye diseases.

Keywords: environmentally unfavorable conditions, eye diseases, blindness, visual acuity, incidence, prevention.

Muammoning dolzarbligi: Oxirgi yillarda urbanizatsiyaning kuchayishi, kompyuter va elektron yangi texnologiyalarning yaratilishi, shuningdek turli xil iqlimiy-geografik, ekologik, ishlab chiqarish omillarining ko'z kasalliklarining kelib chiqishi, rivojlanishi, kechishi va asoratlanishida o'rni kuchayib borayotganini hisobga olgan holda, ushbu kasalliklar profilaktikasiga ham e'tibor kuchaymoqda. Ushbu monografiyada birinchi marta ekologik noqulay sharoitida yashovchi bolalar, o'smirlar va katta yoshdagilar orasida turli ko'z kasalliklarining tarqalganligi, tarkibi va darajasi o'rganildi hamda taxlil qilindi. Xorazm viloyatida ko'z kasalliklari bilan xastalanish o'sish tendentsiyaga ega, usbu xolat asosan o'smirlar va kattalar o'rtasida qayd etilmoqda. Ko'z kasalliklarining tarqalishida noxush ekologik muhit yetakchi o'rni egallaydi. Shuningdek, ko'z kasalliklaridan nogironlikka chiqishining asosiy sabablari, ushbu mintaqaga xos xususiyatlari ochib berildi. Ko'z kasalliklarining kelib chiqishi, rivojlanishi, ojizlik va nogironlikning o'sishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri bu ko'ruv analizatoriga va ko'rish jarayoniga salbiy ta'sir etuvchi yuqumli va yuqumli bo'lmagan organizmning umumiy kasalliklaridir. Olimlar tomonidan tizimli va sindromli kasalliklarning (Bsiyev V.S va muallifdoshlar, 1999), qandli diabetning (Jaloliddinov S.J, 1999; Baxriddinova F.A, 1996, Nesterov A.P, 1997), gemodializ va buyraq transplantatsiyasining (Punusami P.P va muallifdoshlar, 1990), Vegener kasalligining (Arxangelskaya E.P, 1990) arterial gipertoniyaning (Yusupov A.Y va muallifdoshlar, 2015), bolalardagi atopik bronxial astmada (Nazirova S.X, Baxriddinova F.A, 2015) virusli infeksiyalarning (Amdjelov V.O va muallifdoshlar, 2018) va boshqalarning ko'rish jarayoniga ta'siri batafsil o'rganilgan va ularning tashxisi, davosi va asoratlarning oldini olish bo'yicha yetarlicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Ko'z kasalliklarining yosh guruhlariga bo'yicha kasallanganlik darajasini qiyosiy baholash.

Tadqiqot materiallari: Xorazm viloyati shahar va tumanlari ambulatoriya poliklinika muassasalariga, statsionarlarga, shu jumladan, ixtisoslashgan shifoxonalarga ko'z kasalliklari bilan og'rigan bemorlarning murojaatlarini bevosita kuzatish va statistik hisobotlarni (2022-2024 y.) tahlil etish orqali hamda Xorazm viloyati klinik shifoxonasi ko'z kasalliklari bo'limi va Xorazm viloyat ko'z kasalliklari shifoxonasida 2022-2024 yillarda davolanib chiqqan bemor bolalar va katta yoshli bemorlar kasallik tarixi varaqalarining retrospektiv tarzda o'rganilishi orqali amalga oshirildi.

Olingan natijalar: Maktab o'quvchilari orasida o'tkazilgan tadqiqodlar (52) davomida viloyatdagi 7ta maktab va 1 ta gimnaziya o'quvchilari ma'jmuaviy oftalmologik tekshirishdan o'tkazildi. Jami 6-17 yoshli 5229 maktab o'quvchisi tekshirilgan. Miopiyaning tarqalganligi o'quvchilar orasida 5,2% ni tashkil etgan, ularning 44%i o'g'il bolalar, 56% qiz bolalar bo'lgan. Miopiya asosan



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

kichik va o'rata maktab yoshdagi bolalarda rivojlangan, yoshlari oshishi bilan o'quvchilar, ayniqsa qizlar orasida miopiya ko'payadi. Shu sababli muallif fikricha, 6-10 yoshli bolalar va o'smirlar alohida e'tibor qaratmoq lozim. Aniqlanishicha, anemiya, endemik buqoq, karies, astenovegativ sindrom, surunkali tonzilint, adenoidlar kabi organizimning rivojlanishini orqaga suruvchi umumiy xastaliklar miopiya kechishini o'g'irlashtiradi. Bolalar orasida ojizlik va zaif ko'rishga olib keluvchi refraksiya anomaliyalari miqdori ko'pchilik mualliflar ma'lumotlari bo'yicha turlichadir – 6,6% dan 70-7% gacha. Ko'rish faoliyatining zaiflashuviga olib keluvchi refraksiya anomaliyalaridan eng muhim -17,8% -74% holatlarda uchraydigan yaqindan ko'rishdir, keyingi o'rinda gipermetropiya turadi – 4 – 20,2% tashkil qildi.

Ko'zi ojizlar maktab-internati tarbiyalanuvchilarining 1336 ta va zaif ko'ruvchi bolalar maktab o'quvchilarining 315 tasi tekshiruvdan o'tkazilganda (44), ulardan 279 (18,4%) bolada ojizlik yoki ko'rishning zaiflashuvi sababchisi bu refraksiya anomaliyalari bo'lgan, ammo bu holat ko'proq zaif ko'rishga (41,7%) olib kelgan. Refraksiya anomaliyalari o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ikki baravar ko'p uchragan. Fikrimizcha, kasallikning asosiy sabablari bu 39,8% holatda irsiy va 5% holatda yaqin qarindoshlar nikohlaridir. Shu sababli turli davolash-profilaktika tadbirlari ishlab chiqishda shu holatga e'tibor qaratish zarurligi uqtiriladi.

Miopiya kelib chiqish sabablari turlicha bo'lib, ko'pchilik olimlar fikricha u ko'p omillidir, shu sababli ushbu kasallik inson turmush tarzi, iqlimiy-geografik va boshqa omillarga ham bog'liqdir. Shuningdek, bemorlarning ijtimoiy holati bo'yicha taqsimlaganda, yarmidan ko'pining (54,2%) ishchilar ekani, 9,6% i xizmatchilar, 5,6% i qishloq xo'jalik xodimlari, 3,4% i nafaqaxo'rlar, 0,7% i uy bekalari ekani aniqlangan. 4,8% ini har turdagi ijtimoiy holatga mansub odamlar tashkil etganlar. Olingan jarohatning tavsifi bo'yicha ko'rib chiqilganda, ularning: 40,6% i ishlab chiqarishda, 53,7% i turmush sharoitida, 1,7% qishloq xo'jaligida, 4% maktablarda olingan jarohatlarga to'g'ri keladi. Shifoxonaga bemorlarning yotqizilishi: 20,2% da sanitariya transporti, 0,9% da sanitariya aviatsiyasi, 2,3% holatda korxonaning transporti bilan keltirilgan, 55,4% ko'zi jarohatlanganlar shifoxonaga o'zi murojaat qilgan, 21,2% bemorlarda shifoxonaga yotqizilish yo'li turli sabablar bilan ko'rsatilmagan. Ko'z kasalliklari orasida Xorazm viloyatida eng ko'p uchraydigani qovoq va kon'yuktiva kasalliklaridir, bu qatarga refraksiya anomaliyalarini ham qo'shish mumkin. Birlamchi kasallanishlar ko'rsatkichi Respublikamiz va shu jumladan, Xorazm viloyatida yashovchi bolalar orasida yildan-yilga kamayganligini ta'kidlagan holda, ko'z kasalliklari bo'yicha birlamchi kasallanishlar ko'rsatkichi Xorazm viloyati bo'yicha o'sish tendensiyasiga ega ekanligini qayd etish zarur.

Ushbu o'sishning asosiy sababi ko'z kasalliklari bo'yicha birlamchi kasallanishlarning o'smirlar va kattalar orasida ko'proq qayd etilayotganidir (jadval 3.1.1). Respublikamiz bo'yicha jami birlamchi kasallanish ko'rsatkichlari tadqiqot o'tkazilgan yillar orasida sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsa-da, shuni alohida ta'kidlash lozimki, Xorazm viloyati kabi Respublikada ko'z kasalliklari bilan birlamchi kasallanishlar ko'rsatkichining biroz bo'lsa-da o'sish tendensiyasi o'smirlar va kattalar orasida kuzatildi.

Yuqorida sharh etilgan holat Respublikamiz hamda Xorazm viloyati bo'yicha ko'z kasalliklari bilan kasallanish tahlil etilganda ham qayd etildi (jadval 3.1.2). Xorazm viloyatida ko'z kasalliklari bilan kasallanish, ayniqsa, birlamchi kasallanishlar ko'rsatkichi o'smirlar va kattalar orasida Xorazm viloyatida Respublikamiz ko'rsatkichidan ishonarli darajada yuqori ekanligi qayd etildi ($P < 0,001$).

Yuqorida, keltirilganlardan Respublikamizning ayniqsa, Xorazm viloyatining o'smirlar va katta yoshdagi aholisi orasida ko'z kasalliklari bilan qiyoslandi.

Xorazm viloyatida ko'z kasalliklarini, ko'z gavhari kasalliklari 57,1–73,6 tani, shox parda kasalliklari esa 55,7–65,2 tani tashkil etdi (jadval 3.1.4). Yuqorida sanab o'tilgan ko'z kasalliklarining 6 ta nozologik ko'rinishi barcha ko'z kasalliklarining o'rtacha 77% ini tashkil etdi. Demak, ko'z kasalliklarining profilaktikasi birinchi navbatda aynan shu kasalliklarga qaratilishi lozim.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Aniq tashxis qo'yilgan ko'z kasalliklari orasidan birinchi marta aniqlangan tashxislar foizi o'rganilganda qovoq kasalliklarining o'rtacha 64,9% i, kon'yuktiva kasalliklarining 52,4%, shox parda kasalliklarining 21,5%, tomirli parda, shishasimonsimon tana va to'r parda kasalliklarining mos ravishda 46,8%; 26,2% va 68%; ko'ruv nervi kasalliklarining 37,6% birinchi marta aniqlangani ma'lum bo'ldi.

Shunday qilib, umumiy ko'z kasalliklari orasida qovoq va kon'yuktiva kasalliklari hamda refraksiya anomaliyalari eng ko'p foizni tashkil etdi. Shu jumladan, shox parda, ko'z gavhari kasalliklari hamda nazla ham e'tiborni tortadigan ko'z kasalliklari qatoriga kiradi. Birlamchi aniqlanishda qovoq, kon'yuktiva, tomirli parda va to'r parda kasalliklari 46,8–68% lar miqdorida eng ko'p aniqlandi. Nazla (16,2%) va ko'z gavhari kasalliklari (18,1%) eng kam miqdorda aniqlandi. Qovoq va kon'yuktiva kasalliklari asosan ambulator sharoitda davolanishini hisobga olib, profilaktik tadbirlar ular uchun alohida ishlab chiqilishi lozim, deb hisoblaymiz. Barcha ko'z kasalliklari bilan statsionarda yotqizilganlar orasida 15 yoshgacha bo'lgan bolalar qovoq kasalliklari bilan katta yoshdagilarga nisbatan ko'proq davolanayotgani aniqlandi (barcha ko'z kasalliklari 65,5%i). Boshqa barcha ko'z kasalliklari bilan statsionarda yotqizilganlar bo'yicha ularning ulushi katta yoshdagilardan kam miqdorni tashkil etdi. Agar qovoq kasalliklari (48%), shishasimon tana kasalliklari (36,9%), ko'z yosh yo'llari kasalliklari (37,1%) katta yoshdagilarga yaqin bo'lsa, boshqa kasalliklar umumiy ko'z kasalliklarining 1/5 qismidan refraksiya anomaliyalari (22,6%), ko'zning yomon sifatli o'smalari (23,1%), 1/7 qismidan shox parda kasalliklari (14,8%); tomirli parda kasalliklari (14,6%); to'r parda kasalliklari (12,9%); tashkil etdi; ko'z gavhari (2,9%), ko'z nervi (2,7%) kasalliklari, glaukoma (4,4%) kabi ko'z kasalliklari bilan bolalar juda kam miqdorda statsionarga yotqizilganligi aniqlandi. Ko'z kasalliklari bilan statsionarda davolangan bemorlarning o'rtacha 40,5% ini bolalar tashkil etishlari ma'lum bo'ldi, bu asosan qovoq va kon'yuktiva kasalliklari hisobiga ekanligini e'tibordan qochirmaslik kerak

XULOSA

- Xorazm viloyatida aholisi orasida ko'z kasalliklari bilan kasalla-vish o'sish tendentsiyasiga ega. Ushbu tendentsiya asosan usmirlar va katta yoshdagi aholi guruhlari uchun xarakterlidir.
- Ko'z kasalliklari orasida refraksiya anomaliyalari, ko'z gavhari, shox parda va tomirli parda kasalliklari eng ko'p qayd etildi. Ushbu kasallik-lar barcha ko'z kasalliklarining 77% ini tashkil etdi.
- Ko'z kasalliklari profilaktikasi aynan shu kasalliklarning oldini olishga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Амиров А.Н., Сайфуллина Ф.Р., Зайнутдинова И.И. Распространенность заболеваний органа зрения среди детского населения, проживающего в экологически неблагоприятных районах // Казанский медицинский журнал. – Казань, 2013. - Том 94. - №1. - С.22-25.
2. Ахмагамбетова Д.Н., Химич Г.З. Нарушения зрения и профилактика работы зрительного анализатора у школьников // Вестник Инновационного Евразийского университета. - Павлодар, 2013. - №3. - С.14-16.
3. Баранов А.А., Альбицкий В.Ю. Региональные особенности здоровья детей основа выбора приоритетов педиатрической науки и практики / Научная сессия академий. - Москва: Наука, 2007. - С.68-69.
4. Беклемишева Н.А. Информационно-поисковая диагностическая система для наследственных моногенных заболеваний органа зрения // Медицинская генетика. – Москва, 2005. - №4. - С.157-161.
5. Ветошева В.И. Значение профилактики в снижении зрительного утомления в процессе учебной деятельности у детей младшего школьного возраста // Гигиена и санитария. – Москва, 2006. - №4. - С.61-63.



TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI URGANCH FILIALI
JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

1-TOM, 4-SON. 2025

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

6. Гаврилова Т.В., Черешнева М.В., Орлова Н.А. Детский глазной травматизм в Пермском крае // Пермский медицинский журнал. – Пермь, 2017. - Том XXXIV. - № 6. – С.67-71.
7. Гурова Е.Г. Особенности адаптационных реакций организма на физические нагрузки оздоровительного характера у детей 8-10 лет с нарушением зрения // Теория и практика физической культуры. – Москва, 2006. - №8. - С.45-48.
8. Дейнего В.Н., Капцов В.А. Гигиена зрения при светодиодном освещении. Современные научные представления // Гигиена и санитария. – Москва, 2014. – Т.93. - №5. – С.54-58.
9. Джалилов Э., Мамедова Г.Б., Расулова Н.Ф., Назарова Н.Б. Организация мониторинга заболеваемости органа зрения у детей от родственных браков, обучающихся в школе-интернате слепых и слабовидящих // Молодой учёный. - Казань, 2015. - №2 (82). - С.58-60.
10. Еременко К.Ю., Федорищева Л.Е., Александрова Н.Н. Особенности гемодинамики глаз у детей с прогрессирующей миопией // Материалы IX съезда офтальмологов России. - М., 2010. - С.127.
11. Ермолаев А.В. Социологическое обоснование комплекса мероприятий по профилактике глазной патологии у детей (по материалам г. Астрахани). – Дисс... канд.мед.наук. – Волгоград, 2004. – 182 с.

